



BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University


6/2024

E-ISSN 2181-1466





9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



6/2024

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2024, № 6, iyun

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023 yil 29 avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent

Klichev Oybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Муродов Ғ.Н.	Гуманизм ва бадиий тафаккур уйғунлиги	3
Ҳамдамов У.А.	Фитрат шеърятда жадидчилик ғояларининг акс этиши	9
Babayev M.T.	Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi ma’naviy” manzumasidagi masallarda hayvonlarning antropomorfizmi	13
Bozorova R.Sh.	O‘zbek va nemis folklorida suv talqini	18
Chorieva M.J.	The rational perception of the "Pride" in Jane Austen's "Sense and sensibility"	24
Дармонов И.К.	Шомон мўъжизалари ҳақидаги афсоналар	30
G‘aniyeva N.G‘.	Amerikada “rezistans” adabiyoti: Maya Anjelou she’rlari misolida	34
Qurbonova N.R., Ikromova N.I.	Ted Hyuz ijodi adabiy tanqidchilar nigohida	41
Iskandarova Sh.U.	Badiiy adabiyotning epistemologik qiymati	45
Khudoyorova N.B.	The main characteristics of the english enlightenment literature	50
Mizrabova J.I.	Uilyam Shekspir ijodi va uyg‘onish davrining xalq madaniyati	58
Narziyeva S.D.	Samandar Vohidov uhroviy mazmundagi she’rlarining meditatif va elegiyaviy xususiyatlari	63
Qosimova N.F.	Tarjimaga kognitiv yondashishda ongli va avtomatik jarayonlar hamda intuitsiyaning mohiyati	68
Salixova N.N., Luqmonova N.B.	Tarjima tarixi va tarjimonlik faoliyati	73
Temirova F.O.	Bolalar latifalarining o‘ziga xos jihatlari va mezonlari	77
Tursunova S.U.	Psychologism of a female character in Zulfiya Kurolbay's story "Woman"	82
Ахматов А.А.	Положение эпического искусства и искусства наказаний в Кашкадарьинском оазисе	86
Каримова Д.Х.	Немис ва ўзбек адабиётида адабий эртақ тақомилининг асосий омиллари ва манбалари (Ака-ука Гримм эртақларининг ўзбекча таржималари мисолида)	90
Farmanova D.A.	Ethnopoetics in english and uzbek novels	94

O'rmonova N.M.	Qur'oni Karimning o'zbek tiliga tarjimalari tarixidan	98
Jafarova I.A.	English sentimentalism: its formation and evolution period	105
Farmonova M.N.	Iqbol Mirzo she'riyati va folklor asarlarida motiv	109
Fayzulloev O.M.	Tracing the genesis and evolution of the game «Red Rover»	115
Qosimova N.F., Nosirova L.R.	Tarjimada gramatik transformatsiyalarning ahamiyati	120
Shamamedova Z.X.	The noir legacy and its influence on contemporary literature	124
G'aniyeva O.X., Ashurova N.A.	Jeyms Joysning "Eveline" hikoyasida bilvosita xarakterlash va simbolizmlarning ahamiyati	129
Sabirova Z.Z.	Zamonviy she'riyat xususida	133
Axmedova H.H.	Muhammad Yusufning maktub-she'rlari	136
Ганбарова Н.Г.	Роль переводных текстов в аспекте межлитературной коммуникации	141
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK *** TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ		
Hayitov Sh.A., Davronova M.S.	Alisher Navoiy «Arba'in»i hamd va «Sababi ta'lifi manzuma» qismlarining qiyosiy-matniy tahlili	148
JURNALISTIKA *** JOURNALIZM *** ЖУРНАЛИСТИКА		
Рахматуллаева И.Н.	Интерпретация национальных и общих ценностей на телевидении Узбекистана в эпоху глобализации	154
“NAVOIY GULSHANI”		
Amonova Z.Q.	“Xamsa”da “So`z gavhari vasfi”	162

UILYAM SHEKSPIR IJODI VA UYG'ONISH DAVRINING XALQ MADANIYATI

Mizrabova Jeren Ismailovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti (PhD)
mizrabovajerenismailovna@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqola U. Shekspir ijodiga xos komiklik xususiyatlari, komiklik, karnavalning etimologik xosliklari, Uyg'onish davridagi insoniyat hayotida karnaval, karnavalning o'rni, karnavalga xos kulgi, xalq karnaval madaniyatiga oid komiklik xususiyatlari ildizlarining Shekspir ijodiga ta'siri muammolarini o'rganishga bag'ishlangan. Uyg'onish davridagi karnavallariga oid kulgi tabiatining belgilari, Shekspir dramalaridagi komiklik xususiyatlari tadqiq etilgan. Uyg'onish davrining ijtimoiy-madaniy sharoiti, Elizaveta davridagi ingliz tilining ahvoli Shekspir ijodidagi kalamburlari va so'z o'yinlari xususiyatlariga bo'lgan ta'siri o'rganilgan.

Ilmiy maqolada U. Shekspir uslubiga hos kalamburi tuzilishidagi o'ziga xosliklari, kalamburlarining turlicha masalalari tahlilga tortilgan. Uyg'onish davrida so'zning qadr qimmatini, so'zga e'tibor, mavjud so'zlarning yangi ma'nolarini ixtiro etishga bo'lgan moyillikni aks ettiruvchi asr ruhiyatining Shekspir ijodida aks ettirilishidagi muammolari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Shekspir, karnaval, kalambur, davr, komiklik, yumor, ambivalentlik, kulgi, madaniyat, janr, gtotesk, teatr, sahna, donishmandlik, til.

УИЛЬЯМ ТВОРЕНИЕ ШЕКСПИРА И НАРОДНАЯ КУЛЬТУРА ЭПОХИ РЕНЕССАНСА

Аннотация. Настоящая статья посвящена изучению комических особенностей характерных творчеству У. Шекспира, комичность, этимологические особенности карнавала, роль карнавала в жизни человечества эпохи Возрождения, карнавальная смех, влияние истоков комических особенностей народной карнавальная культура на творчество Шекспира.

В научной статье анализируются особенности структуры каламбуров в стиле У. Шекспира, а также различные вопросы игры слов. Изучены социальные и культурные условия эпохи Возрождения, состояние английского языка в елизаветинскую эпоху, а также отражение духа эпохи в творчестве Шекспира, ценность слова, внимание к слову, склонность к изобретению новых значений существующих слов.

Ключевые слова: Шекспир, карнавал, каламбур, эпоха, комедия, юмор, амбивалентность, смех, культура, жанр, гротеск, театр, сцена, мудрость, язык.

CREATION OF WILLIAM SHAKESPEARE AND POPULAR CULTURE OF THE RENAISSANCE ERA

Abstract. This article is devoted to the study of the comic characteristic features of the works by William Shakespeare, comedy, etymological features of carnival, the role of carnival in the life of humanity during the Renaissance period, carnival laughter, the influence of the origins of the comic features of folk carnival culture on the work of Shakespeare.

The scientific article analyzes the structural features of puns in the style of W. Shakespeare, as well as various issues of word play. The social and cultural conditions of the Renaissance, the state of the English language in the Elizabethan period, as well as the reflection of the spirit of the period in the works by Shakespeare, the value of words, attention to words, and the tendency to invent new meanings of existing words have been studied.

Keywords: Shakespeare, carnival, pun, period, comedy, humor, ambivalence, laughter, culture, genre, grotesque, theater, stage, wisdom, language.

Kirish. Ma'lumki, til bu milliy-madaniy asoslarga ega bo'lgan hodisadir. Voqelik epizodlarining aynan badiiy matnda namoyon etilib va bunday matn ma'lum bir millatning ruhiy-ma'naviy dunyosi, o'ziga xos milliy-ma'naviy fonini o'rganish imkonini yaratadi. Binobarin, yumor hodisasi ham ma'lum bir millatning madaniyati kontekstida voqelanadi. Ma'lumki, yumor - estetikaning eng murakkab yani, turli hodisalarni qamrab oluvchi komiklik kategoriyasi bilan uzviylikda o'rganiladi. O'z navbatida, yumorning

ham o'ziga xos turli shakllari mavjud: kinoya, kalambur, so'z o'yini, satira, sarkazm, parodiya, latifa, xazil va h.k. Ammo shuni ta'kidlash joizki, har bir xalqning yumorga bo'lgan qarashlari turlicha. Shuningdek, ingliz xalqining yumori ham o'ziga xos milliy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Angliya mamlakatining orolda joylasganligi, tarixidagi uzoq davom etgan janglar, iqlim sharoitlari "Tumanli Al'bion" mentalitetining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

O'rganish metodlari. Bugungacha adabiyotshunoslik fanida komiklikning tabiati va mohiyatiga doir ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Komiklik aksariyat diskurslarda qatnashuvchi universal tushuncha ekanligi uning tabiatiga oid keltirilgan talqinlarning xilma-xilligini belgilaydi. Shekspir ijodiga xos komiklik xususiyatlarini belgilashda mazkur terminning etimologiyasiga oid berilgan quyidagicha izohlar muhim ahamiyatga ega "Komiklik [2. el.man.]- kulgili (grek. "komikos" – xushchaqchaq, kulgili, "komos" – qadimgi Gretsiyada Dionisning qishloq xo'jaligi bayramida maskarad keyimida keyingan xushchaqchaq olomon, to'da). Mazkur bayram (25 mart – 1 aprel) Qadimgi Gretsiyada Dionis sharafiga shahar ahli tomonidan keng nishonlangan va unda tragediya, komediya, satira, namoyishlar, maskarad, maskaradga oid keyinishlar, mushoiralar uyushtirilib hamda g'olib bo'lgan aktyor va shoirlari mukofotlash, bayram so'ngida esa hukumat tomonidan xalq uchun tashkil etilgan katta bazm va ziyofat bilan yakunlangan. Fevral-mart oylarida nishonlanuvchi gullar bayrami esa - Attikaning eng yirik porti bo'lgan Afinaga Dionisning kemada kelishi rang-baranglarcha tasavvur qilingan. Keyinchalik qadimgi Rim ijodkorlari Dionisning ushbu bayram kemasini lotincha 'carrus navalis' "kema aravasi" deb atashgan va shu tariqa mashhur "karnaval" so'zi kelib chiqqan. Shuningdek, Afina ko'chalarida aktyorlarning ishtirokidagi ushbu karnavallarda komediya va tragediya tug'ilib, buyuk va o'lmas qadimgi yunon teatr san'atiga asos solingan. Ushbu masalalarga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlarda O'rta asrlardan Uyg'onish davriga o'tishdagi komiklikning og'zaki shakllariga bo'lgan tubdan yangi munosabatlarning vujudga kelganligi to'g'risidagi mulohazalar kuzatiladi. Xususan, M.M.Baxtin [1: c. 538.] o'z tadqiqotlarida O'rta asrlardagi insoniyat hayotida karnaval, karnavalning o'rni, karnavalga xos kulgi, kulgining kelib chiqishi manbalarni o'rganishga intilgan. Shuningdek, karnaval ruhi nafaqat O'rta asr Evropa xalqlarining bayramlari balki, diniy, rasmiy va kundalik hayoti tarzi doiralari ham singib borgan. Binobarin, kulgi fuqarolarning maishiy va diniy marosimlarda birdek kuzatilgan. Vaholanki, karnaval tamoyillari O'rta asrlar jamiyatining dunyoqarashi, urf-odatlari va ma'naviyatining bosh omili vazifasini o'tagan.

Karnavallarda xalq tomonidan uyushtirilgan kulgi va tomoshalar tabiatan o'tkir "o'yin" [1; c. 11.] unsurlarga boy bo'lib, badiiy-obrazli shakllar yani, teatr sahna tomoshasiga yaqinligi bilan ajralib turardi. M.M. Baxtinning ta'kidlashicha, "bu kabi karnavalga oid madaniyatning yadrosi aslo sof badiiy teatr tomoshasi shakli bo'la olmaydi va umuman san'at sohasiga ham kirmaydi". "U san'at va hayot chegarasining oralig'ida joylashgan. Aslida, bu hayotning o'zi, lekin o'ziga xos o'yin tarzida namoyon etilgan" [1; c. 12.].

Darhaqiqat, karnaval davomida ijrochi va tomoshabinlar ajratilmagan yoki sahna ham bo'lmagan. Karnaval tomoshalari mushohada etilmagan va o'z mohiyatiga ko'ra umumxalq hodisa sifatida O'rta asrlarga xos yashash tarzi bo'lib hisoblangan. Karnaval namoyishlari davomida unga oid "karnaval ozodligi" [1; c. 13.] qonunlari hukm surgan yani, bu bayram tomoshalari odamlarning ikkinchi hayotining bir shakliga aylangan, vaqtinchalik bo'lsa-da, ularni erkinlik, tenglik va farovonlikka asoslangan utopik saltanatining jamiyatiga yetaklagan.

Karnaval namoishlari davomidagi qatnashuvchilarning fantaziyalari, vaqtincha bo'lsa-da shodiyona, betashvish va qayg'ulardan xalos bo'lgan ichki ozodligining lahzalari ularning milliy madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini e'toborga olingan holda bir qator tadqiqotlarda yoritilgan. [3; c. 144.] Shuni ta'kidlash joizki, karnavaldagi kulgi - bayramona va tantanali hamda xalqchil tabiatga ega bo'lgan. Shuningdek, M.M.Baxtin O'rta asrlardagi karnavallariga oid kulgi tabiatining quyidagicha belgilarini ko'rsatib bergan:

- kulgining xalqchilligi
- kulgining universalligi (kulgining tabiati barcha hodisa va narsalar o'ziga xos jihatlaridan kelib chiqib belgilanishi; karnavalda qatnashuvchilarning o'zi muallif, aktyor, masxaraboz va tomoshabin ham o'zi bo'lishi)
- kulgining ambivalentlik xususiyati (u ham inkor etadi, ham tasdiqlaydi; dafn qiladi va tiriltiradi; u ham haqorat qiladi, ham maqtab madh etadi)
- bu kulayotganning o'z o'ziga qaratilgan kulgisi: [1; c. 125.]

Ta'kidlashimiz joizki, ma'lum bir millatning yumorga bo'lgan qarashlari, hajviyoti manbalarining bitmas-tuganmas xazinalari va milliy o'ziga xosligi hamda betakrorligi aynan tilda tajassum etiladi. Evropa Uyg'onish davrining Uilyam Shekspir, Erazm Rotterdamskiy, Lope De Vega, Servantes va h.k. kabi yirik vakillari o'z ijodida karnaval tilining imkoniyatlaridan keng foydalangalar. Ingliz Uyg'onish davri

adabiyotida shakllanib ulgurgan turli yoʻnalishlar va yangi intilishlarini puxta oʻzlashtirgan Shekspir ijodining komiklik xususiyatlari ildizlari ham xalq karnaval madaniyatiga borib taqaladi.

Shuningdek, soʻz sanʼati sohasining gʻoyaviy yoʻnalishlarida mavjud boʻlgan barcha shakl va uslublari imkoniyatlaridan har tomonlama mukammal foydalanishga boʻlgan intilishlar va davrga xos shakllanib borayotgan ingliz tilining tajriba-sinovlarga asoslangan erkinlik ruhiyati Shekspir yashab ijod etgan Elizaveta davri tilining tub mohiyatini belgilagan.

Uygʻonish davrida ingliz tilining qatʼiy tizimi shakllanmaganligi uchun tilning faol dinamikligi va undagi turfa oʻzgarishlarga sabab boʻlgan. Hamda, Shekspir davrida soʻzlashuv tilining maʼlum qolipga keltirilmaganligi shuningdek, jamiyatdagi yuqori va past tabaqalari soʻzlashuv tilining oʻzaro yaqinligi ingliz dramaturgi teatri auditoriyasi koʻlamini kengaytirgan. Shekspir dramalari tomoshabinining bunday xilma-xilligi ijodkorning sahna asarlarini yaratishda komiklikning mavjud boʻlgan barcha koʻrinishlaridan unumli foydalanish uchun qulay zamin yaratgan: fars - qoʻpol yoki qaltis xazil, teatrdagi kichik hajviy pʼesa; buffonada - kulglili teatr tomoshasi, masxarabozlik, maynabozlik; nafis intellektual, oʻtkir kinoya; jonbaxsh va optimistik yumor. Shekspir dramalaridagi komiklik xususiyatlari shakl va mazmunning nomutanosibligi, kinoya, sarkazm, xunuklik va goʻzallikning taqqoslanishi, oʻyin va h.z. Yuqorida taʼkidlab oʻtkanimizdek, Uygʻonish davrining ijtimoiy-madaniy sharoiti va Elizaveta davridagi ingliz tilining ahvoli Shekspir ijodidagi soʻz oʻyinlari xususiyatlarini belgilab bergan. Shuningdek, Elizaveta davrining ingliz tili tizimida shakllanib ulgurgan til tuzilishlari zaminida turli fonetik-semantik munosabatlar asosida tilga oid kalamburlarning yaratilishiga keng eshiklarini ochib berdi. Shu bilan bir qatorda, Oʻrta asrlarda ingliz tili lugʻati tarkibini lotinlashtirish jarayonlarining keng tus olganligi bilan bir qatorda roman tillaridan kirib kelgan oʻzlashtirma soʻzlar va iboralarning shiddatli oqimi nafaqat ingliz tilining leksik va morfologik potentsialini balki, tilning stilistik imkoniyatlarining boyishi va turlanishini yanada ragʻbatlantirdi. N.Bleykning taʼkidlashicha “Shekspir asarlaridagi kalamburning [5; p. 38.] tantanali taraqqiyoti” oʻsha davrga xos ingliz tilida mavjud boʻlgan tor imkoniyatlaridan dramaturgning naqadar kengroq hamda samarali foydalanish uchun bor kuch va gʻayratini ishga solgan. Uygʻonish davrida soʻz sanʼati mahorati sharaf boʻlib hisoblangan. Shuningdek, Shekspirning soʻz tanlash va qoʻllashidagi tajribalarga boʻlgan baland ishtiyoqi oʻsha davrning ruhiyatini belgilagan.

Aslida, Shekspir kalamburlarining turlicha tasniflarini keltirish mumkin. Oʻz navbatida, Shekspir tilini oʻrganuvchi tadqiqotchilar ham dramaturg kalamburlari tizimini turlicha ifodalaydilar. Masalan, X.Kekerits [6; p. 134.] ham Shekspir kalamburlarini ikkita shartli guruhlariga ajratgan: 1. *jingles* – asosan alliteratsiyada qurilgan ohangdoshlik (“Feast won, fast lost”; «Great reason: for past care, is still past cure”) 2. *homonymic puns* (council / counsel; ears / years) (omonimik kalamburlar).

Maʼlumki, Shekspir oʻz asarlarini yaratishda har soʻzning maʼnoviy tovlanishlari koʻlamiga jiddiy eʼtibor qaratgan. Agarda Uygʻonish davrida “teatr tomoshabinlari soʻz sanʼati mahorati va namoyish etiluvchi pʼesalarning dramatik hususiyatlariga bunchalik qiziqmaganida Shekspir ham oʻz dramalariga bunchalik puxta oʻylangan soʻz oʻyinlarini kiritmagan boʻlar edi” [7; p. 5.]. Shekspir oʻz ijodida Uygʻonish davrining oʻziga xosligini yani, soʻzning qadr qimmatini, soʻzga eʼtibor, rasmga aylangan va har kun yangi soʻz hamda mavjud soʻzlarning yangi maʼnolarini ixtiro etishga boʻlgan moyillikni aks ettiruvchi asr ruhiyatini koʻrsata olgan. Shekspir davrida yangi soʻz yaratuvchilar yoki leksik kashfiyotlarni kirituvchilar yuksak qadrlangan. Shekspir ham oʻzining soʻz sanʼatidagi kashfiyotlarini ommaga taqdim etishga intilgan. M. E. Burtonning taʼkidlashicha “hamohang soʻzlarning oʻzaro aloqadorligidagi tafovut etuvchi turfa maʼnolari uning eʼtiborini tortgan., ... oʻz asrining ingliz tiliga boʻlgan talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kalamburlardan yumor vositasi sifatida foydalangan. Shekspir kalamburlar oʻtkirlikni namoyon eta oluvchi qulay vosita ekanligini eʼtirof etgan” [7; p. 6.].

Maʼlumki, Shekspir dramalaridagi yumoristik jilolarini taʼminlovchi soʻz oʻyinlari va kalamburlarini yaratishda, nafaqat soʻzlarning yangi mazmunlarni kashf etishga boʻlgan ijodkorning baland ishtiyoqi sabab boʻlgan, balki, dramaturgning asosiy maqsadi ingliz tilining Lotin tilidan ustunligi va adabiy tilning quvvatini koʻrsatish boʻlib hisoblangan.

“Dramaturgning oʻz ijodida haddan tashqari ortiq kalamburlardan foydalanganligi sabablarini oʻsha asrda ingliz tilining oʻzgarishlarga duch kelganligi holati bilan tushuntirsa boʻladi. Aslida, Shekspir ingliz adabiy tilining imkoniyatlarini amalda koʻrsatishni maqsad qilganligi shubhasizdir. shuningdek, dramalaridagi aynan, yumoristik xosliklarni taʼminlash maqsadida kalamburlardan ustamona foydalangan. Birgina, “Love’s Labour’s lost” asarida ikki yuzdan ortiqroq soʻz oʻyinlari namunalarini uchratdik. ... hattoki, mazkur dramaning nomlanishini “A Comedy of Words” deb yuritsak ham boʻladi” [7; p. 7.].

Shekspir ijodidagi kalamburlarining yumoristik xususiyatlari Uygʻonish davridagi xaloyiq toʻplangan karnavallar voqealari qaynagan jarayonidagi xalq kulgisining quyuqumidan olingan. Shuningdek, M.

Baxtinning [1; P. 538.] O'rta asrlar madaniyatidagi kulgining o'rganilishga bag'ishlangan tadqiqot ishi Shekspir ijodidagi yumori tabiatini belgilashda ham katta ahamiyatga ega. Chunki, Shekspir ham O'rta asrlardan Uyg'onish davriga o'tish zamonidagi keskin burilishlar paytida ijod etgan. Binobarin, Uyg'onish davrining o'ziga xos xalq madaniyati, hayotidan xursand va mamnun turmushi, uning karnavallardagi bayramona kayfiyati, karnavalga oid dunyoraqashi va kulgisining adabiyotga bo'lgan ta'sirini e'tiborga olmasdan ilojimiz yo'q. Vaholanki, Uyg'onish davridagi kulgining tabiati olamonning maydonlarda uyushtirgan karnavallari, rampasiz (teatr sahnasi) tomoshalari, masxarabozlar hazillari, karnavallardagi xalqning bayramona kulgisining universalliligi hamda ambivalentliligi, tana topografiyasining moddiy groteskli obrazlarining o'ziga xos xususiyatlaridan bunyod etilgan. Xususan, Go'te Italiyaga sayohati chog'ida kuzatgan karnavallarning xalqchilligini ta'kidlab ularni quyidagicha tasvirlaydi, "...karnaval shunday bayramki, u atayin xalq uchun uyushtirilmaydi balki, bu bayramni xalq o'zi uchun o'zi belgilaydi. ... bu yerda xalq nomiga hech qanday muruvvat marhamat etilmaydi, ammo, xalqni har qanday rasmiyatchilikdan ozod etib tinch quyishadi. ... mushtlashuv va pichoqbozlikdan tashqari barcha maynabozchiliklar, ahmoqliklar, o'yinlar va hazillar ruxsat etilgan" [8; p. 202.]. Shuningdek, Shekspir komediyalarida ham xalq bayramlari maydonidagi erkin va betakalluf kulgi yangrovchi karnavalga oid muhitni payqash mumkin.

Ma'lumki, Uyg'onish davrining keskin o'zgarishlar fonidagi adabiyotida vujudga kelgan ambivalentlik xususiyatga ega bo'lgan groteskli obrazlar tarixiy burilishlarning asosiy badiiy-g'oyaviy vositasi vazifasini o'tagan. "*Groteskli realizm* - O'rta asrlardagi xalq kulgisi madaniyatining obrazli tizimi sifatida taraqqiy etgan etgan bo'sla, Uyg'onish davri adabiyotida esa karnavalga oid groteskli obrazlar qayta tug'ilib badiylikning eng yuksak darajasini egalladi. ... Rable, Servantes va Shekspir ijodiga xos groteskli obrazlilik bevosita Uyg'onish davrining xalq karnaval madaniyati zaminida shakllangan bo'lib keyingi asrlar realistik adabiyotiga ham o'z ta'sirini o'tkazgan" [1; p. 39.].

Shuningdek, O'rta asrlardagi kulgi madaniyati (tor bayramonalik qirralaridan oshib) asta – sekin adabiyotga o'tib borishi bilan uning o'ziga xos moralite, soti yoki fars kabi janrlarining yuzaga kelishi kuzatiladi. XVII asrlarga kelib Uyg'onish davrining xalq karnaval madaniyatiga oid kulgining tabiatidagi universalligi xususiyatlaridan individullik xosliklarga sari bo'lgan o'zgarishlar sezila boshlaydi.

Uyg'onish davrida xalq karnaval madaniyatiga oid kulgisining universalliligi, ambivalentliligi, groteskli realizmi xususiyatlari XVIII asrga kelib o'zining ilk ahamiyatini yo'qotgan bo'lsa-da davr adabiyotiga o'z ta'siri o'tkazgan. Bunday ta'sir oqibatida karnavalga oid shakllarlar parchalanib XVIII asr adabiyotida turli badiiy maqsadlarda qo'llaniluvchi badiiy vositalarga aylangan va kulgi adabiyotining satirik va ko'ngil ochar janrlarining yuzaga kelishida asos bo'lib xizmat qilgan. Natijada, XIX asr adabiyotida yuqorida keltirilgan janrlar asosida kulgining – yumor, kinoya, sarkazm va h.k. kabi ko'rinishlari shakllanib keyinchlik adabiy janrlarning stilistik komponenti sifatida ravnaq topgan.

Jaxon adabiyotida Shekspir ijodi talqinlari o'ta murakkab hodisa deb tan olinganligi, oydin haqiqatdir. Shunday bo'lsa-da, uning dramalari tabiatini har tomonlama yanada chuqurroq o'rganish, ming yillik tarixga ega bo'lgan Uyg'onish davrining xalq kulgi madaniyati xazinasiga eltuvchi yo'lni belgilab berishi tayin. Shuningdek, "...o'tmishdagi xalq kulgi madaniyatining mohiyati va chuqur ildizlarining o'ziga xosligi hamon to'liq ochib berilmagan" [1; p. 7.]. Vaholanki, Uyg'onish davrida rang-barang va turli shakllardagi karnavalga oid uyushtirilgan bayramlar, madaniy-ommaviy ko'rinishdagi kulgichilik marosimlari, masxarabozlar, maynabozlar va qiziqchilar, majruh, devqomat yoki pakana odamlar, parodiyaga oid adabiyot namunalari va h.k. lar yaxlit xalq-kulgichiligi va karnavalga oid madaniyatini tashkil etgan. Shuningdek, O'rta asrlarga oid xalq kulgi madaniyatini namoyon etuvchi o'zaro uzviy bog'liqlikdagi turli shakllarni uchta asosiy ko'rinishlarini belgilash mumkin:

- *Tomosha shaklidagi marosimlar* (karnavalga oid bayramlar, maydonlarda rampasiz (teatr sahnasiz) sahna tomoshalari va h.k.);

- Turli hil ko'rinishlardagi *kulgili (parodiyaga oid) og'zaki ijod namunalari*; og'zaki yoki yozma, lotin yoki xalq tilidagi namunalalar;

- *Maydonga oid betakalluf nutqning* turli janrlari va shakllari (haqorat, qasam yoki ont ichish, la'nat, xalq blazonlari va h.k.) [1; p. 9.].

Shuningdek, Shekspir ijodidagi kulgi nazariyasining shakllanishida (Evropadagi birinchi yozma shakldagi) "vasvoslik va savdoiylk" mavzusiga bag'ishlangan "Gepokrat roman"ning kuchli ta'siri sezilmoqda. Mazkur romanning bosh qahramoni "dono-telbalik" rahnamosi Demakritning "donolarning - donolarcha amalga oshiruvchi g'arazli ishlari va ahmoqliklari, shuningdek, donolar ham Demakritning ular amalga oshirgan jiddiy ishlari ustidan savdoyilarcha kulganligi uchun Demakritning o'zini jinni deb

hisoblashlari” tog’risidagi mulohazalari, “donolik va telbalik” mavzusiga oid ambivalentlik ta’siri Shekspir dramalaridagi masxarabozlar nutqlari, Xamlet izohlarida va h.k. yaqqol ko’ringan.

Yoki, xalq og’zaki komiklik ijodining mashhur janrlardan biri “coq-à-l’âne” (atayin shakllantirilgan bema’ni ibora, ma’nosiz soʻzlar yig’indisiga asoslangan og’zaki ijod janrining bir ko’rinishi) bo’lib, mazkur hodisa M.Baxtin talqinida “игра словами” (soʻzlar o’yini) deb yuritilgan. “... Kontekstda bu kabi tartibdagi soʻzlar kutilmaganda tasodifiy oʻzaro aloqadorlikka kirishib avvalgi mazmularining yangilanishi, soʻzlarning asl mohiyati asosida ambivalentlik va ko’p ma’nolilik yani, odatiy munosabatlarda ko’rinmaydigan yangi imkoniyatlari kashf etilgan. Bu o’ziga xos til karnavali edi... [1; p. 467.]”.

Shu bilan bir qatorda, XVI asrda “blazon” [1; p. 471.] (birvarakayiga ikki hil mazmunga ega, yani: koyish, haqorat va maqtov, madh, sano) deb yuritilgan adabiy hodisa keng tus olgan bo’lib davr ijodkorlari tomonidan barakali foydalangan. Shuningdek, “blazon” da maqtov yoki koyishlar hazil yohud kinoyali xususiatga ega bo’lganligi bilan bir qatorda “ikki ma’nolilik” yani, bu kabi izohlar tagmatnida to’g’ri va ko’chma ma’nolar anlashilgan. Biz ishimzda yuqorida zikr etilgan obrazliliklarning (dono-telbalik, donolik va telbalik, coq-à-l’âne, blazon va h.k.) ambivalentlilikligi xususiyatlari asosida voqelangan kalamburlarni Shekspir dramalarida ham kuzatdik.

Xulosa. Aslida, Shekspir asarlarining alohida janriy xususiyatlari belgilanmagan. Ma’lumki, Uyg’onish davrida Italiya va Ispaniyada odatga aylanib ulgurgan “aralash janrlar” shaklidagi ijod usullari Shekspirning dramaturgiyasiga ham o’z ta’sirini o’tkazmay qolmagan. Buning tasdig’ini biz Shekspirning “Xamlet” tragediyasida qatnashgan Poloniyning nutqida ham kuzatishimiz mumkin.

LORD POLONIUS

The best actors in the world, either for tragedy, comedy, history, pastoral, pastoral-comical, historical-pastoral, tragical-historical, tragicalcomical-historical-pastoral, scene individable, or poem unlimited ^[11]; el. man.]:

Полоний

Булар дунёнинг энг яхши актёрлари бўлиб, ҳар кимнинг ҳам таъбини қитқлай оладилар. Чунончи: трагедиялар, комедиялар, хроникалар, пастораллар, яъни чўпон пьесалари, пасторал комик асарлар, тарихий-пасторал ва булардан бошқа ҳар хил сахналар учун пьесаларга улар уста... [9; b. 92.]”.

“для представлений трагических, комических, исторических, пасторальных, пасторально-комических, историко-пасторальных, трагико-исторических, трагико-комико-историко-пасторальных... [12; с.128.]

Shekspir tragediyalari mavqeida ro’y beruvchi tragikomediya xos xususiyatlar yoki tragediyalar syujeti davomida to’satdan farsga oid sahnalarning kiritilishi Uyg’onish davrining janriy kontekstiga xos xusiyat belgisi bo’lib, davr dramaturgiyasi mezonlari uchun zid holat bo’lib hisoblanmagan. Shekspir teatri tomoshabini sahnalar davomidagi shiddatli voqealar rivojidan ko’ra ko’proq aktyorlarning badiiy nutqida yanrovchi yangi ma’noviy tovlanishlar, o’tkir soʻz, o’tkirlik, poetik nutq va soʻz go’zalligidan zavq olganlar.

ADABIYOTLAR:

1. Бактин М.М. *Творчество Франсуа Рабле и народная культура средневековья и Ренессанса.* – М., 1965.
2. <http://shakespeare.mit.edu/cleopatra/full.html>
3. Лихачев Д.С., Панченко А.М., Поньрко Н.В. *Смех в Древней Руси.* – Л., 1984.; Blake N.F. *Shakespeare’s language.* – N.Y., 1983.;
4. Cohen S. *The language of power, the power of language: the effects of ambiguity on socio-political structures as ill in Shakespeare’s plays.* – Cambridge, 1987.
5. Blake N.F. *Shakespeare’s language.* – N.Y., 1983.
6. Kökeritz H. *Shakespeare’s pronunciation.* Yale University Press, 1960.
7. Burton, Mary E., “Word-play in Shakespeare.” (1925). *Electronic Theses and Dissertations. Paper 185.* <https://doi.org/10.18297/etd/185>
8. Гете Иоганн Вольфганг. *Собрание сочинений. В 10-ти томах. Т. 9. Воспоминания и встречи Пер. с нем. Под общ. ред. А. Аникста и Н. Вильмонта. Коммент. Н. Вильмонта. М., «Худож. лит.», 1980. 495 с. -С. 202.*
9. Шекспир В. *Танланган асарлар. Беш жилдлик. Ҳамлет / Рус тилидан Мақсуд Шайхзода таржимаси. 3-жилд.* –Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983.– 640 б. – Б. 92.

LITERARY CRITICISM

10. Шекспир У. (2003). Трагедия о Гамлете, принце Датском. Перевод с англ., запись статья и примеч. М. Л. Лозинского. 416 с. Санкт Петербург, Азбука-классика. (На русском) -С. 128.
11. <https://kcsepdf.co.ke/wp-content/uploads/2020/08/Hamlet-by-William-Shakespeare.pdf>.
12. Шекспир У. (2003). Трагедия о Гамлете, принце Датском. Перевод с англ., запись статья и примеч. М. Л. Лозинского. 416 с. Санкт Петербург, Азбука-классика. (На русском) -С. 128.

2030 | UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz



Google
scholar



**"SCIENTIFIC REPORTS
OF BUKHARA STATE
UNIVERSITY"**

The journal was composed
in the Editorial and
Publishing Department of
Bukhara State University.

Editorial address:

Bukhara, 200117
Bukhara State University, main
building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing
Department.
[https://buxdu.uz/32-buxoro-
davlat-universiteti-ilmiy-
axboroti/131/131-buxoro-davlat-
universiteti-ilmiy-axboroti/](https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/)
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted
05.06.2024 y. Paper format
60x84,1/8. Printed in express
printing method. Conditional
printing plate – 35,30.
Circulation 70. Order № 30.
Price is negotiable.
Published in the printing house
"BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara,
K.Murtazayev street, 344